

AQSH-Xitoy munosabatlaridagi muammolar va ularning ko`rinishlari. Sharqiy Osiyo mintaqasi misolida

Azbergenov Sharaf, Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

Tel: +998(90) 993-68-26

Grandchik_1411@mail.ru

Bugungi kunda AQSH va Xitoy o`rtasidagi munosabatlarning keng ko`lamda rivojlanib, ikki davlat o`rtasida turli muloqot guruhlari tashkil etilmoqda. Ikki davlat o`rtasida iqtisodiy, siyosiy va boshqa yo`nalishlarda munosabatlar o`rnatilgan. Lekin, shuarga qaramasdan AQSH va Xitoy o`rtasida xalqaro maydondagi vaziyatlar yuzasidan o`zaro qarama-qarshiliklar mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin¹.

AQSHning Sharqiy Osiyoga nisbatan siyosati ushbu mintaqada Xitoyning kuchayishi sharoitida o`zining mazkur hududdagi imkoniyatlarini saqlab qolish uchun o`ziga xos transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Bu borada Amerikaning ushbu mintaqadagi ishtiroki shakllari va vositalari o`zgarib bormoqda. Amerika tashqi siyosatining Sharqiy Osiyoga yo`naltirilgan "Osiyo tomon yuzlanish" dasturi doirasidagi jadallashuvi Xitoy bilan mintaqaviy raqobatning kuchayishiga sabab bo`lmoqda. Ikki qudratli davlatning mintaqadagi qarama-qarshiligi murakkab va uzoq muddatli xarakter kasb etadi. Bunda Vashington ham, Pekin ham Sharqiy Osiyoning iloji boricha ko`proq davlatlarini o`z ta'sir doirasiga olishga va mintaqada yetakchi mavqega ega bo`lishga intilmoqda².

Yaqingacha ushbu raqobat ijobiy rivojlanib, Sharqiy Osiyo davlatlariga naf keltirdi va har ikki mamlakat bilan hamkorlik qilish orqali ular iqtisodiy va

¹ Brzezinski Z. The Group of Two that could change the world. The Financial Times, January 13, 2009. // <http://www.ft.com/intl/cms/s/0/d99369b8-e178-11dd-afa0-0000779fd2ac.html#axzz30QqK59Vb>;

² Дўстов У. ХХР ва АҚШнинг Шарқий Осиёдаги рақобати. // XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий, ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами / Масъул муҳаррир: Ш.А.Ёвқочев. –Т.:ТошДШИ, 2016. –Б.125-129.

harbiy-siyosiy dividendlar olishdi. Bundan tashqari, har ikki mamlakat raqobati ularning Sharqiy Osiyo siyosiy maydonida bir-birlarini “tiyib turishlari” natijasida bitta davlatning yakkahokimligiga yo’l qo’yilmadi. AQSH va Xitoyning Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, turli xil savdo-iqtisodiy imtiyoz va preferensiyalar berish, erkin savdo to’g’risidagi shartnomalarni imzolash singari usullar orqali ularni o’z siyosati doirasida “ushlab turish”ga qaratilgan siyosati esa mintaqa davlatlariga muayyan iqtisodiy manfaat keltirdi. Biroq, so’nggi yillarda AQSH-Xitoy raqobati keskin tus olmoqda. Har ikki mamlakat mintaqadagi harbiy-strategik imkoniyatlarini kuchaytirmoqda, harbiy harajatlarni oshirib borayotgan Xitoy o’z harbiy-texnologik imkoniyatlarini ham kengaytirib bormoqda.

Amerikaning Sharqiy Osiyodagi tashqi siyosati hamda bu yerdagi AQSH-Xitoy bilan munosabatlarini tahlil qilganda ichki siyosiy omilni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim, ya’ni Amerikada yoki Xitoyda hokimiyatga qaysi shaxs kelishidan va u qanday tashqi siyosiy strategiyani tanlashidan kelib chiqqan holda, Sharqiy Osiyodagi Vashington siyosati va uning Pekin bilan aloqalarida qisman o’zgarishlar kutilishi mumkin. Jumladan, 1990-yillarda B.Klinton boshchiligidagi AQSH rahbariyati Xitoyni eng avvalo jahon iqtisodiyotiga “jalb qilish” bo’yicha izchil strategiyani amalga oshirib keldi. Xitoyning Butunjahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishi va 2000 yilda Amerika Kongressi tomonidan Xitoyga doimiy ravishda mumkin qadar qulaylik yaratib beriladigan davlat (“most favored nation”) maqomi berilishi muhim o’rin tutadi¹.

2000-yili J.Bushning hokimiyat tepasiga kelishi Xitoy bilan munosabatlar istiqboli o’zgardi. O’zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik va siyosiy raqobat mushtarakligida strategik raqobat ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xususan, davlat kotibi Kondoliza Raysning 2000-yil “Foreign Affairs” jurnalida e’lon qilingan maqolasida “Xitoy Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi barqarorlik uchun tahdid

¹ Дўстов У. ХХР ва АҚШнинг Шарқий Осиёдаги рақобати. // XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий, ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами / Масъул муҳаррир: Ш.А.Ёвқочев. –Т.:ТошДШИ, 2016. –Б.125-129.

bo'lib qolmoqda. Xitoy AQSHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rolidan norozi bo'lib, bu yerdagi kuchlar muvozanatini o'z foydasiga o'zgartirish istagida. Shuning o'ziyoq Xitoyni bir paytlar Klinton ma'muriyati atagandek "strategik sherik" emas, balki "strategik raqib" sifatida namoyon qiladi", deb yozadi¹. 2008-yili AQSHda demokratlarning hokimiyat tepasiga kelishi va 2009-yil yanvarda B.Obamaning AQSH prezidenti sifatida ish boshlashi esa Amerikaning Sharqiy Osiyo mintaqasiga siyosati faollashuvi hamda Xitoy bilan munosabatlarda hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan xarakterlanadi. 2009 yilda Xitoy bilan bevosita "Strategik va iqtisodiy muloqot"ning yo'lga qo'yilishi Vashingtoning Pekin bilan hamkorlik qilishga intilishidan darak beradi.

Ikki davlat o'rtasida Sharqiy Osiyo mintaqasidagi muammolarning eng dolzarblarini tahlil etib ko'radigan bo'lsak avvalo biz Tayvan masalasiga to'xtalib o'tishimiz darkor. AQSH uchun bu siyosat Uch Kommyunike doirasida (AQSHda turli vaqtdagi uchala prezidentlari bayonotida) yotadi. Shuningdek, Tayvan va AQSH o'rtasidagi munosabatlar 1979-yil 29-martdagi AQSH Kongressi tomonidan tasdiqlangan akt bo'yicha olib boriladi. Unga ko'ra, Tayvan bo'g'ozida Xitoy va Tayvan o'rtasidagi ziddiyatlarni hech qachon bo'lmasligini; ular o'rtasida yaxshi aloqalar bo'lishini va barcha kelishmovchiliklarni tinch yo'l va sulh bilan bajarilishi ilgari suriladi.

2007-yilning may oyida B.Obama o'zining saylov oldi dasturlarida Tayvan xususida shunday dedi: "Bu bizning harbiylarimizni Osiyo-Tinch okeani mintaqasida bo'lmasligini bildirib, bizning Pekin va Taybeydagi alyanslarimiz ta'sirini kuchaytiradi, bu Tayvan bo'g'ozida bir tomonlama mavjud bo'lgan kemalarning o'rnini o'zgartirishga yo'l qo'ymaydi"².

Asosiy muammo orolga AQSH tomonidan harbiy qurollarning yetkazilib berilishi va bu Xitoyning noroziligini keltirib chiqarilishidir. B.Obama ma'muriyati 2016-yilga qadar Tayvanga nisbatan uch marotaba qurollar partiyasini yetkazib berish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

¹ Rice C. Campaign 2000: Promoting the National Interest, Foreign Affairs, January/February, 2000 // <http://www.foreignaffairs.com/articles/55630/condoleezza-rice/campaign-2000-promoting-the-national-interest>

² Bill G. Inside the Ring: Pentagon reevaluating pivot to Asia // Washington Times, March 5, 2014

Bu o'z navbataida Xitoyning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi harbiy siyosatiga qarshi chiqishiga olib kelmoqda. 2010-yil mart oyida Xitoy noodatiy tarzda Amerika Janubiy Koreyaning Koreya yarim oroli yaqinidagi suvosti kemalariga qarshi zudlik bilan qarshi chiqdi. Sariq dengizda amerikaning “Jorj Vashington” avianosiga qarshi fikr bildirdi. Shuningdek, 2009-yilda Xitoy harbiy kemalari AQSHning “Mukammal” nomli razvedka kemasini qurshab olganligi uchun mojaro kelib chiqdi va bu ish sal qolganda otishmaga aylanib ketar edi. 2010-yil yanvarida B.Obama Tayvanga harbiy texnikalar sotilishi, shular ichida “Patriot III” nomli raketa ham borligi va harbiy shartnoma miqdori 6,5 milliard dollarga teng ekanligi, Xitoy tashqi ishlar vazirligi birinchi bor amerika kompaniyalarining qurol-yaroq savdosiga sanksiya joriy qilishi haqida e’lon qildi¹. Buning isboti sifatida Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashida Eronga qarshi AQSH tomonidan ilgari surilgan takliflarga veto e’lon qildi². Keyinchalik tomonlar kelishuviga binoan 6,5 milliard dollarlik shartnoma ma’lum muddat to’xtatildi.

Ta’kidlash joizki, 2016 yilgi Tayvan rahbarligi uchun kurashda orolning mustaqilligini yoqlovchi va oppozitsiya hisoblangan “Democratic Progressive Party”sining g’olib chiqish ehtimoli Xitoyda havotir uyg’otdi. Shunday bo’lsada, 2015-yil avgust holatiga ko’ra Xitoy Tayvanning asosiy import manbasi va eng katta eksport bozori hisoblanadi. 2014-yilda ikki tomonlama savdo 130.2 milliard dollarga yetgan. Bu 2008-yilga nisbatan 32%ga oshganini ko’rsatadi. Ammo AQSH-Tayvan iqtisodiy munosabatlarini ham unitmaslik kerak. 2015-yilda ikki tomonlama munosabatlar mustahkam holatda qoldi. 2014 yilda ikki tomonlama savdo 67,4 milliardni tashkil etdi. Tayvan AQSHning o’ninchi yirik savdo hamkoriga aylandi. 2014 yilda ikki davlat o’rtasidagi harbiylar tashrifi soni ham ortib, yil davomida 3 martadan ko’p AQSH Pentagon rasmiylari tashrif buyurishgan bo’lsa, bu 2013 yilga nisbatan 50%ga o’sganini

¹ Терентьев Л. США и Китай: от проекта «большой двойки» к «холодной войне». // Центр стратегических оценок и прогнозов. 18.02.2010.

² П. Бурмистров. США-Китай: карта будущей войны., // Русский репортер. –№9 (137). –2010. –С.53

ko'rsatadi¹. Tabiiyki, bunday tendensiya Xitoy tomonidan ijobiy qabul qilinmaydi.

Janubiy-Xitoy dengizidagi bahsli vaziyatlar. Xitoy Janubiy-Xitoy dengizidagi kimsasiz orollarning bir nechtasiga da'vogarlik qiladi. Ushbu havzaga bo'lgan huquqlarini Tayvan, Malayziya, Filippin, Bruney va Vetnam ham ilgari suradi. Ayniqsa, Skarboro rifi hamda neft va gazga boyligi aytiladigan Spratli arxipelagi atrofidagi tortishuv ancha jiddiy hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, arxipelag orollari strategik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U yerda, so'nggi yillarda uchish-qo'nish maydonlarini barpo etish bilan faol shug'ullanayotgan Pekin mintaqadagi ta'sirini sezilarli kuchaytirib oladi. Xitoy 2014-yil iyunidan, ziddiyatli dengiz havzasida sun'iy orollar barpo etishni boshlab yuborgan. Shuningdek, 2016-yil 24-fevral kuni, Xitoy o'zi nazoratidagi Vudi oroliga harbiy havo kuchlari qiruvchi samolyotlarini yuborgan edi. Vudi kimga qarashli ekani borasida aniq to'xtamga kelinmagan Parasel (Sisha) orollari tarkibiga kiradi. Amerika harbiy dengiz kuchlariga qarashli raketa esminesining ushbu hududda ruxsatsiz paydo bo'lgani, Pekinning keskin noroziligiga asos bo'lgan va qarshi choralar ko'rishiga sabab sifatida ko'rsatilgan edi.

Washington nuqtai nazari bo'yicha ikki asosiy omilga ko'ra, AQSHning maqsadlariga qarshi kiber-josuslikni va Janubiy-Xitoy dengizida Xitoyning aggressiv xatti-harakatini davom ettirishi bilan 2015-yilda AQSH-Xitoy aloqalari yomonlashdi. Hattoki, Xitoyning Janubiy-Xitoy dengizida o'zgaruvchan harakatlari, Qo'shma shtatlar ittifoqdoshlari va hamkorlarini uzoqlashtirganligi va AQSH harbiylari tomonidan havo va dengiz tranzitida bahslashganligi sababli, Pekin Janubiy-Xitoy dengiziga bog'liq bo'lgan muammolarda AQSHning o'zi aralashmasligini talab qilishni davom etmoqda. 2015-yilda, Xitoyning yerni o'zlashtirish faoliyati bahsli Spratli orollari ustidan

¹ 2015 Report to Congress of the U.S.-China Economic and Security Review Commission [/http://www.uscc.gov](http://www.uscc.gov) November 2015

Pekin va qo'shni davlatlar o'rtasidagi keskinlik o'sdi. 2015-yil may oyida Janubiy-Xitoy dengizidagi AQSH-Xitoy keskinligi kuchaya boshladi.

2015-yil 27-oktabrda B.Obama hukumati tomonidan olib borilgan uzoq muzokaralardan so'ng, AQSH Harbiy Floti masofadan boshqariluvchi harbiy havo kemasi Subi qoyasidan, ya'ni Xitoy tomonidan AQSH hukumatiga bu yer uning hududiga kirmasligini bildirib qo'yish maqsadida yaratilgan sun'iy oroldan 12 dengiz mili uzoqlikka erkin kuzatuv parvozini amalga oshirdi. 2015-yil may oyidan boshlanib butun yoz bo'yi AQSH Floti doimiy ravishda uning havo kuzatuv nazorati sun'iy orol yaqinida ekanligi to'g'risida axborot berib bordi. Natijada Janubiy-Xitoy dengizidagi AQSH-Xitoy keskinligi 2015-yilning may oyida sezilarli tarzda orta boshladi. 2015-yil 12-mayda Xitoyning Janubiy-Xitoy dengizidagi sun'iy orol loyihasi yaxshiroq o'rganilib aniqlanganligi uchun, "Wall street" jurnali AQSH Mudofaa kotibi Eshton Karter Xitoyning o'zlashtirma yer loyihasidan 12 dengiz mili doirasiga AQSH Floti Kuzatuv havo kemasini jo'natishni hamda so'nggi paytlarda Spratlisdagi harakat kuchayishi haddan ortib ketganligi va to'xtatilishi kerakligi haqida Pekinga xabar berish maqsadida Pentagon va Oq Uy aniq qaror qabul qilishida ortib borayotgan harakat sonini hisobga olishni o'ylab ko'rayotganligi to'g'risida axborot berdi.

O'zaro muammolarni hal etish yo'lidagi sa'y harakatlar. Ikki davlat Prezidentlari Barak Obama va Sin Szinpin 2015-yil sentabrda o'zaro sammit o'tkazishdi. Avval ta'kidlanganidek, Prezident Si Szinpin 2015-yilning sentabr oyida AQSHga davlat tashrifini amalga oshirdi. Tashrif chog'ida ikki mamlakat bir necha shartnomalar va kooperativ harakatlarni amalga oshirishdi ulardan eng muhimi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq va kiberjinoyatchilikning maqsadi iqtisodiy josuslik ekanini ma'lum qilishdi. Bundan tashqari uyishgan jinoyatchilikka qarshi hamkorlik va harbiy mashqlar va boshqa xavfsizlik hamda tashqi siyosiy bildirishnomalarni o'z ichiga olgan majburiyatlarini, terrorizmga qarshi hamkorlikni kuchaytirish (ayniqsa qo'lbola portlovchi vositalari tayyorlash bo'yicha); gumanitar yordam va favqulodda yordam hamkorlikni kengaytirish; yadroviy xavfsizlik bo'yicha yillik ikki tomonlama muzokaralarni

tashkil etish va Afg'onistonda iqtisodiy rivojlantirish hamda qayta qurishda hamkorlikni davom ettirish to'g'risida ma'lum qilindi.

Shu bilan birga Xitoy va AQSH iqtisodiy hamda strategik muzokaralarning yettinchi raundi 2015-yilning 23-24-iyunida Vashington bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar 100 ta masala ustida bahslashishdi, biroq Janubiy-Xitoy dengiz ustidan chorasizlik va kiberxavfsizlik sababli "Strategik yo'l"da kutilgan natijaga erishilmadi.

2016-yil 31-mart – 2-aprel kunlari Xitoy rahbari Sin Szipin Vashingtonda yadro xavfsizligi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. AQSH va Xitoy davlat rahbarlari, yadro xavfsizligi bo'yicha Vashington sammiti doirasida muloqot o'tkazgan. XXR yetakchisi shuningdek, Janubiy-Xitoy dengizi suvereniteti masalasida AQSH betaraf pozitsiyani egallashiga umid bildirgan.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

Birinchidan, Zamonaviy AQSH-Xitoy munosabatlari ko'p qirrali xususiyat kasb etib, so'nggi yillarda barcha sohalarda jadal o'sish ko'rsatkichlarini namoyon etmoqda. Ammo, ushbu munosabatlarda nafaqat o'zaro iqtisodiy hamkorlik va siyosiy mushtaraklik (xalqaro va mintaqaviy siyosatning ba'zi masalalari bo'yicha) balki shular bilan bir qatorda o'zaro qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar elementlari ham mavjud¹.

Ikkinchidan, bugungi kunda AQSH-Xitoy munosabatlarida strategik raqobat omillari namoyon bo'layotgan mintaqala sifatida biz Sharqiy Osiyoni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, so'nggi yillarda dunyoning boshqa nuqtalaridagi harbiy harakatlar bilan band bo'lgan AQSH Sharqiy Osiyoda Xitoyning o'z o'rnini mustahkamlashi uchun qulay sharoit yaratdi. Natijada, AQSHning mintaqadagi xavfsizlikni ta'minlashdagi yetakchi o'рни saqlab qolingani holda XXR mintaqqa mamlakatlarining muhim savdo-iqtisodiy sherigiga aylandi.

¹ Дўстов У. ХХР ва АҚШнинг Шарқий Осиёдаги рақобати. // XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий, ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами / Масъул муҳаррир: Ш.А.Ёвқочев. –Т.:ТошДШИ, 2016. –Б.125-129.

Uchinchidan, Qo'shma Shtatlar XXI asrning birinchi o'n yilligi oxiriga kelib, "Osiyo tomon yuzlanish" siyosatini hayotga tadbiiq etishni boshlab, u Amerika tashqi siyosatida Osiyo mintaqasi, jumladan, Sharqiy Osiyoning o'zni va ahamiyati keskin ortishini nazarda tutadi. Bu esa mintaqada o'z o'rniga ega bo'lgan Xitoyning "javob reaksiyasi" qilishiga turtki bo'lmoqda.

Adabiyotlar:

1. Bill G. Inside the Ring: Pentagon reevaluating pivot to Asia // Washington Times, March 5, 2014
2. Brzezinski Z. The Group of Two that could change the world. The Financial Times, January 13, 2009. <http://www.ft.com/intl/cms/s/0/d99369b8-e178-11dd-afa0-0000779fd2ac.html#axzz30QqK59Vb>
3. Johnson W. The five most important issues in U.S.-China relations // <http://blogs.reuters.com/great-debate/2015/06/23/the-five-most-important-issues-in-u-s-china-relations/> - June 23, 2015
4. Kenneth L., Peter W.S. Cybersecurity and U.S.-China Relations. China Center and the 21st // Century Defense Initiative at Brookings, February 2012. –P.23.
5. Rice C. Campaign 2000: Promoting the National Interest, Foreign Affairs, January/February, 2000 <http://www.foreignaffairs.com/articles/55630/condoleezza-rice/campaign-2000-promoting-the-national-interest>
6. Дўстов У. ХХР ва АҚШнинг Шарқий Осиёдаги рақобати. // XXI асрда жаҳон сиёсати ва Ўзбекистон тажрибаси: сиёсий, ҳуқуқий ва ижтимоий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами / Масъул муҳаррир: Ш.А.Ёвқочев. –Т.:ТошДШИ, 2016. –Б.125-129.
7. П. Бурмистров. США-Китай: карта будущей войны., // Русский репортер. –№9 (137). –2010. –С.53